

ODAMZODNING PAYDO BO'LISHIGA BIR NAZAR

Teshayeva Shahzoda

Osiyo xalqaro universiteti tarix yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10668896>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Odamzotning paydo bo'lishi, u qanday paydo bo'lgan, nimadan kelib chiqqan, dastlabki odam qanday ko'rinishga ega bo'lganligi, bu haqda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilganligi hamda bu jarayon haliham davom etayotganligi haqida fikr yuritilgan. Xususan bir olimlarning odamni yaralishi haqida ko'plab nazariyalari bilan bog'liq mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Darwin, sayohat, "Turlarining kelib chiqishi", Odam Ato, "maymun", Qur'oni Karim, "Bibliya".

A LOOK AT THE EMERGENCE OF MAN

Abstract. This article examines the origins of Man, how he appeared, where he came from, what the first man looked like, many scientific studies have been carried out on this subject, and this process continues to this day. In particular, there are comments regarding many theories of scientists about the creation of man.

Key words: Darwin, journey, "The Origin of Species", Adam, "monkey", Holy Quran, "Bible".

ВЗГЛЯД НА ПОЯВЛЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. В данной статье рассматривается происхождение Человека, как он появился, откуда произошел, как выглядел первый человек, на этот счет было проведено множество научных исследований, и этот процесс продолжается до сих пор. . В частности, имеются комментарии, касающиеся многих теорий учёных о создании человека.

Ключевые слова: Дарвин, путешествие, «Происхождение видов», Адам, «обезьяна», Священный Коран, «Библия».

Odamzotning paydo bo'lishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. U qanday paydo bo'lgan, nimadan kelib chiqqan, dastlabki odam qanday ko'rinishga ega bo'lgan. Bu haqda ko'plab olimlar izlandilar va bu jarayon haliham davom etmoqda. Xususan olimlar odamning yaralishi haqida ko'plab nazariyalarni ilgari surganlar. Masalan, bulardan biri Charlz Darwin. U o'zining "Turlarining kelib chiqishi" (1871-yil] nomli asarida odamzotni odamsimon "maymun" dan kelib chiqan deb aytadi. Bunga isbot qilib u "1848-yilda ispaniyalik ishchilar Gibraltar qoyasini portlatish vaqtida eng qadimgi odamning pastki jag'siz kalta suyagini topdilar. 1856-yilda Fransuz paleontologi Larte Avstryaning Yuqori Granna degan joyida yer tarixining miatsen yotqiziqlaridan (bundan 5-12 mln yil burun) eng oliy tipdagi odamsimon "maymun"ning uchta tishi bilan pastki jag'ini topdi. Uni olimlar Driopitek (daraxtada yuruvchi "maymun") deb nom berishdi. Bu esa Charlz Darvinning g'oyalarini isbot qilib berdi. Charlz Darvinnig asosiy vazifasi odamzotni qaday paydo bo'lganini ilmiy tomondan isbotlash edi¹.

¹ Seytimbetova Nargiza "ibtidoiy jamoa tarixi "Nukus-2011 bet-18

Odam yaralishi haqida diniy nazariya ham mavjud. Bu bizning muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimdir. Qur'oni Karimda Alloh tomonidan Odam Ato yaratilgan. Alloh Odam Atoni loydan o'zining yerdagi o'rinbosari (xalifa) sifatida yaratib, unga o'z ruhidan jon ato etgan Odam Ato Abulbashar (insoniyat otasi) deb ham nomlanadi. Islomda Odam Ato birinchi payg'ambar hisoblanadi. Alloh Odam Atoga barcha narsalarning nomlarini o'rgatdi va bu bilan uni farishtalardan yuqori qo'ydi. Farishtalarga Odam Atoga bosh egib unga sajda qilishni buyurdi.

Xalqimiz azal azaldan diniy talimot yaratgan xalqlardan biri hisoblanadi Unda Insonni paydo bo'lishi Alloh tomonidan yaratilganligi ilgari suriladi. Lekin bu nazariyalarni XIX asr o'rtalariga kelib Charlz Darvin diniy nazariyaga qarshi chiqib o'zining "Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning paydo bo'lishi" (1863) "Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish" degan asarlarida o'zigacha to'plagan va o'zi to'plagan materiallarga asoslanib o'simliklar va hayvonlarning eng oddiy turlaridan rivojlanib, oliy turlariga yetganligini isbot qilib berdi. Charlz Darvin odamning hayvonot olamidani kelib chiqanini davo qilar ekan, u odamning odamning paydo bo'lishida tabiiy tanlanishning ahamiyatiga ortiqcha baho berib yuborib, eng muhim sotsial sabab bo'lgan mehnatning olamshumul ahamiyatini payqamadi. Lekin Ch.Darvinning ulug' xizmati shundaki, o'simliklarni, hayvonlarni hamda odamni Xudo o'zgarmaydigan qilib yaratgan degan diniy afsonaviy fikrlarni yo'qqa chiqardi ².

Charlz Darvin bu bilan nima demoqchi, u ilmiy nazariyani dindan ustun qo'ydi, hatto uni yo'q deb takidladi. U odamzot bosqichma- bosqich maymundan yaralgan degan aqidani odamlar ongiga singdirishga harakat qildi va shu asosdagi targ'ibot- tashviqot orqali ta'sir qildi. Bugunga kelib bu ta'limotning puch va yolg'onligi fosh bo'lib, uning uydirma ekanligi ma'lum bo'ldi. Chunki maxluqning ya'ni o'zi yaratgan kimsaning o'zi yashab turgan olamni yarata olishi aqlga sig'maydi. Odamzot o'zi yashab turgan tevak olamni yaratishi mumkin emas, yani nima demoqchiman bu Allohning mo'jizasi, uning qudrati cheksizligidan dalolat beradi.

Insoniyatga nozil bo'lgan ilohiy kitoblar Tavrot, Injil, Qur'oni Karimda bu olam va borliqni yaratguvchisi borligi odamzotga yer yuzida yashash taqdir etigani bu olam mangu va abadiy emasligi xamda oxirat maxshar kuni bu dunyoga kelgan kishilar yaxshi va yomon amallaridan xisob berishi haqida xabar beriladi. Bu haqda diniy kitoblarda Oxirat va Maxshar kuni keltirib o'tilgan. Odamning yaralishi haqida ko'pgina diniy kitoblarda aytib o'tilgan. Masalan Yaxudiylar kitobi "Bibliya"da Odamzot xudo tomonidan bundan 7 ming yil muqaddam "Qizil loydan" yaratiladi deyiladi. Musulmonlarning muqaddas kitobi Qur'oni Karimda esa odamning loydan yaratilganligi haqida ta'kidlanadi. Biz qanday yaralganmiz bu haqda olimlar hali bir to'xtamga kelganlari yo'q. Masalan Yevropalik olimlardan biri O.Shengler odamzotning eng qadimgi ajdodlarini biz bilmaymiz, odam hamma vaqt hozigidek edi deydi. U bilan hamfikir Kneyshmid esa odamning ongi bo'lganini aytadi. Odamzotning paydo bo'lishi haqida antik davrda turli xil qarashlar mavjud bo'lgan. Bulardan biri yunon olimi Arastu tabiatni bir karvonga o'xshatib odamzot quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga, hayvonoy olamidani odamzot dunyosiga o'sib chiqdi³ degan fikrni olg'a surgan. Shuni takidlash kerakki Alloh insonga boshqa yaratgan

² O.U.Mo'minov A.D.Bababekov "Inson va evalutsiyasi va Old tarix "Toshkent Innovatsiya-Ziyo-2020 bet-6

³ Seytimbetova Nargiza "Ibtidoiy jamoa tarixi"Nukus -2011 bet 19.

jonzotlardan ajratish uchun insonga ong, aql-idrok berdi. Alloh inson uchun barcha narsalar foydalanishni o'rgatgan. Hattoki barcha farishtalarga insonga sajda qilishni buyuradi.

Mana yuqorida o'zingiz guvohi bo'ldingiz odamning paydo bo'lishini turli davrlarda turlicha tariflashgan. Bizning dinimizda odamzotni ya'ni o'zimizni yaralganimizni Alloh bizni qanday go'zal qilib yaratgani aytilgan. Biz uning inoyati bilan shu yorug' olamga keldik azizlar shuni yoddan tutishimiz kerak Odam Ato ham bu dunyoga sinov uchun yuborilgan. Endi Charliz Darvinning fikriga to'xtalsak olim insonni odamsimon "maymun"dan tarqalganini takidlaydi xo'sh o'sha odamsimon "maymun" qanday paydo bo'lgan bu haqda hali aniq bir to'xtamga kelganlari yo'q. Ilmiy taqiqot ishlari esa hali davom etmoqda.

REFERENCES

1. Seytimbetova Nargiza "ibtidoiy jamoa tarixi "Nukus-2011 bet-18
2. O.U.Mo'minov A.D.Bababekov "Inson va evalutsiyasi va Old tarix "Toshkent Innovatsiya-Ziyo-2020 bet-6
3. Akmal, B., & Ismat, N. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 73-80.
4. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
5. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>
6. Ashurovich, B. A. (2023). VARAKHSHA MURAL GANCH AND CLAY PAINTINGS. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 48-53.
7. Akmal, B. (2023). ANTIK VA ILK O 'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65-70.
8. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 298-302.
9. Akmal, B. (2023). QADIMGI BAQTRIYA MADANIYATI VA YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(7), 100-102.
10. Akmal, B. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142-146.
11. Bobohusenov, A. (2023). QADIMGI VARAXSHA DEVORIY GANCH VA LOY BEZAKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 303-308.
12. Akmal B. (2024). THE GREAT WALL OF THE EARLY MIDDLE AGES - KANPIRAK WALL. *Modern Science and Research*, 3(1), 694–698. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28381>

13. Srojeva, Gulbahor. "CONTINUITY IN EDUCATION-CHIEF MEZON." *Modern Science and Research* 2.12 (2023): 834-839.
14. Srojeva G. (2024). SOLUTIONS, RESULTS AND PROBLEMS OF REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(1), 782–788.
15. Srojeva, G. (2023). LOWER ZARAFSHAN OASIS TOURISM OPPORTUNITIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 199–204.
16. Gulamova D. (2024). EUPHEMISM INTERPRETATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE. *Modern Science and Research*, 3(1), 817–823. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28458>
17. Gulamova, D. (2023). METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE CULTURE OF USING EUPHEMISMS IN 9TH GRADE NATIVE LANGUAGE CLASSES. *Modern Science and Research*, 2(12), 483–493. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/26960>
18. Gulamova, D. I. (2023). 5-6-SINF ONA TILI DARSLARIDA EVFEMIZMLARDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.
19. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
20. Sadullayev, U. (2024). THE NEIGHBORHOOD IS THE CRADLE OF VALUES. *Modern Science and Research*, 3(1), 607–613. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28343>
21. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722-727.